

## ZAMONAVIY JAMIYATDA SO‘FIYLIKKA DOIR NAZARIY MANBALAR TAHLILI

Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich  
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

### Annotasiya:

Ushbu maqolada malomatiylikning zamonaviy jamiyatda o‘rni va ahamiyati haqida diniy-falsafiy qarashlar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy jamiyat, malomat, tasavvuf, irfon, ixlos, sidq.

XI asrdan boshlab institutsionallasha boshlagan tasavvuf o‘z mazhab va tariqatlari bilan ma’naviy jamoaga aylanib bordi. Malomatiylik g‘oyalari tariqat tajribalari riyozatlari uchun kuchli g‘oyaviy asos bo‘ldi. So‘fiylik dunyosida o‘z xos o‘rnini egalladi. Har bir mazhabda oqim sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Malomatiylik bu borada o‘z mavqeiga ega bo‘ldi. Ba’zilar uni ya’ni malomatiylikni harakat deb hisoblasa ayrimlari uni oqim yoki tariqat deb ham hisoblaganlar. Tasavvuf va tariqlar tarixi bilan shug‘ullangan olimlar bu tariqatning uch davrini birinchi davrini “Malomatiya Qassoriya”, ya’ni malomatiylik asoschisi Hamdun Qassor (V. 271/884) nomi bilan bog‘laydilar. Ikkinchi davrini “Malomatiya Bayramiya” uning asoschisi Bursa atrofida yashagan Umar Sakkini (V. 880/1475) nomi bilan bog‘liq. Uchinchi “Malomatiya Nuriyya” bu esa Muhammad Nurul Arabi (vaf. 1305/1887) bilan boglanadi. Shu tarzda mustaqil tariqat sifatida buni baholovchilardan tashqari, vaqt o‘tishi bilan ularni Quron va Sunnatdan butunlay boshqa yo‘nalishlarda harakat qilganliklarini, Shuningdek, shariatdan boshqa turmush tarzidan aziyat chekayotganlar uchun boshpana bo‘lib xizmat qilganini ham ta’kidlagaydigan toifalar ham bo‘lgan. Bu ular foydalanadigan hayot falsafasiga aylangan. Tasavvuf tarixi va nazariyasini birinchilardan bo‘lib ta’lif qilgan buxorolik mutasavvif olim Abu Bakr Kalobodiy o‘zining “at-ta’arruf bi mazhabi ahli tassavvuf” asarida X asrning tasavvufiy muhitini yaqqol tasvirlagan. Mutasavvif “at-ta’arruf” (“tanishtirish”) kitobida “Alohdan boshqa narsalardan yuz o‘girishdi. Ularning nuri pardani siyirib, basiratlar Arsh atrofida javlon urdi. Ular ruhoniy jismlar va yerda yuruvchi samoviylardir. Xalq orasidagi rabboniylardir. Ular sukut saqlab yuruvchi ko‘zi o‘tkirlar, eski kiyimlar kiygan podshohlar, qavm orasidagi g‘ariblar...”[1.7] deb ta’riflagan ilk so‘fiylar qiyofasi namoyon bo‘ladi. Ularning zohiri va botini poklangan kishilar ekanligini uqtiradi. X asrga oid ushbu manba



davrning yuqorida tilga olingan mazhab talashuv yoki turli bahslarga javob tarzda yozilgan birlamchi nazariy manba ekanligi bilan muhim sanaladi. Asar soʻfiylikning mumtoz davriga yaqinligi soʻfiylik oqimlari gʻoyalari xususidagi dastlabki maʼlumot beruvchi manba ekanligi metodologik ahamiyati bilan birga muhim tarixiy va diniy mavqega ega hisoblanadi. Malomatiylik oqimiga mansub malomiylarning qiyofalarini ularning fazilat va xislatlarini anglash maʼnosida ham soʻfiylik bilan aloqadorligi jihatidan oʻrganishda ham oʻz oʻrniga ega.

Malomatiylikning ham islomga uning asoslari zahirida paydo boʻlgani alohida ahamiyatga ega. Qurʼoni Karimning Moida surasida (54-oyat) “Malomat qiluvchining malomatidan qoʻrqmaydilar”[2.117],- degan oyatga hamohanglikni koʻrish mumkin. Xulosa, qilish mumkinki, islom dini nafaqat tariqatlar, qarashlarning shakllanishi va rivojlanishida balki, ularning diniy falsafiy asoslarining takomillashuvida ham eng muhim omil boʻlganligi ayni haqiqat.

Umuman, malomatiylik Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida oʻziga xos hodisa sifatida xoh adabiyotda, xoh xalq tilida, xoh tasavvuf olimlari asarlarida boʻlsin oʻz ifodasini topgan, turli darajalarda namoyon boʻlgan. Ijtimoiy madaniyat hayotda ijtimoiy ongga oʻz taʼsirini koʻrsata olgan. Insonlarni nafsning turli illatlaridan qutulish, nafsni poklash, oʻz-oʻzini doimiy taftish qilish, oʻz “men” ini tanishga undagan. Bu oʻz oʻrnida insonni maʼnan yuksaltirishga ruhiy-maʼnaviy, axloqiy jihatdan tarbiyalashga oʻz hissasini qoʻshgan. Markaziy Osiyoda malomatiylik va qalandariylikning vujudga kelishi uning yoyilishi aksariyat holatda tarixiy tadqiqotlarda oʻz aksini topgan. Tasavvuf va tariqatlar rivojlanishining turli bosqichlari, malomatiylik, qalandariylik va boshqa harakat hamda tariqatlar xususidagi fikrlar xilma-xilligi ushbu qarashlar doirasidagi bahslarning maydonini kengaytirib borgan. Markaziy Osiyoda yoyilgan malomatiylik va qalandariylik tariqatlarining paydo boʻlishi xususan qalandariylikning shu oʻlkalarga xos ildizlarga ega ekanligi ham turli bahslarga sabab boʻlib kelgan. Koʻplab tadqiqotchilar ularni Eron va Turkiyada vujudga kelganini va tarqalganini keyinchalik boshqa oʻlkalarda tarqalganini bayon etgan. Markaziy Osiyoda mavjud boʻlgan tariqatchilik, soʻfiylik tariqatlari va harakatlarining vujudga kelishi va ijtimoiy falsafiy qarashlarga taʼsiri, oʻz tarixiy ildizlariga ega boʻlgan malomatiylik va qalandariylikning oʻrganilishi falsafa tariximizda muayyan darajada chetda qolgan.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, turmush va tafakkur tarzi, urf-odat va anʼanalari umuman jamiyatdagi soʻfiyona hamda islom muhiti ushbu tariqatlarning yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratgan deyish mumkin. Markaziy Osiyo tarixida



beqiyos serqirra, rang-barang madaniy-ma'naviy boyliklarni yaratishga, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi, asrlar osha ozuqa bergan qatlamlarni, yangi sahifalarni vujudga keltirgani bilan ahamiyatlidir.

XII asr oxirlari XIII asrlarda Mintaqada siyosiy vaziyatning chegallashuvi hayotning beqarorlashuvi turli bosqinlar xalqning boshpanasiz qolishiga ham olib kelgan. Nochor ahvolda qolgan musulmonlar u yerda kun kechirishgan. Ilm, ma'rifatning toju-taxt uchun kurashlar, diniy-mazhabiy nizo va ixtiloflar natijasida pasayishi ham shu asrlarga to'g'ri keladi. Xonaqohlarda chilla o'tiruvchi soxta shayxlar, dindorlar, xilvatnishin, uzlatparast ulla molarning paydo bo'lishi tasavvuf va tariqatlar uchun ham katta xavf edi. Islom asoslaridan uzoqlashishi tasavvufning sofligini saqlab qolish imkoniyati tobora yo'qolib borayotganidan darak berar edi. Chunki, davrning ijtimoiy-ma'naviy muhitida shakllangan turli tariqatlar harakatchilik va mazhabiy-siyosiy tus ola boshlagani uning falsafiy-irfoniy negizlarining zaiflashganini ham ko'rsatar edi.

O'rta asrlar sharoitida xususan Amir Temur va temuriylar davrida muqobil rivojlangan Naqshbandiya o'zining xuddi shu holatlarga qarshi tariqat sifatidagi mavqeini ushbu davrda oshirdi. Bu davrga kelib tariqatlar jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lib bordi. Chunonchi, so'fiylikning nazariy tizimi yaratilib, o'zlashtirish, o'rganish mumkin bo'lgan irfoniy ta'limotga aylangan edi. Tasavvuf allomalari Allohning biru-borligi, olam inson uchun yaratilgani, odam bolasi mukarram zot ekanligi, ruhiy-ma'naviy tarbiya uni yuksaltirishi, Allohning vasliga yetkazishi mumkinligi xususidagi qarashlarini kitoblarida bayon etdilar. Muhammad bin Mahmud al Hofiz al-Buxoriy o'zining "Faslul-xitob" kitobida "tariqat pirlari din ulug'lari va ahli imon peshvolaridirlar. Ular zohiriy va botiniy ilmlarni to'plaganlar hamda hol va kamol sohibidirlar. Ularning sof aqidalari usulga binoan kitob sunnat (hadis) va ijmo'i ummat (ijmo') bilan yoritilib aqliy va naqliy dalillar bilan quvvatlantirilgandir. Shularning barchasi bilan ular yana ahli zavq va vijdon va kashfu ayon sohibidirlar. Alloh ularga lutfi bilan yuzlanib mehri bilan O'ziga tortgandir. Undan ularga go'zallik o'tgan, ular o'zlariga taqvo kalimasini lozim tutganlar. Alloh haqida qayg'urganlar, Allohga sayr qilganlar va Allohdan o'zgasidan yuz o'giranlar. Ularning nurlari pardani yirtgan, sirlari Arsh atrofida aylangan. Ular qasd qilgan xos mo'minlardir. Ahli sunnat val-jamoat mazhabini quvvatlovchi va haqiqatlovchidirlar. Bid'at va zalolatlardan uzoqdirlar"[4.3] -degan fikrlari mag'zida so'fiy kishilar, tariqat ahllarining sifatleri ularning holu-ahvollarining bayonini ko'rish mumkin. Shu bilan birga so'fiy kishilar jamiyatda



axloqiy munosabatlar, e'tiqod mustahkamligi, ikki olam saodatiga erishish yo'lidagi kishilar sifatida ham o'ziga xos ta'sirga ega bo'lganlar.

### **Foydalangan Adabiyotlar**

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Исҳоқ Калободий Бухорий. Ат-таъарруф ли мазҳаби аҳлит-тасаввуф. (Тасаввуф аҳли йўли билан танишув) масъул муҳаррир Ж.Раупов-Тошкент: Azmir nashr print-2022.-В.7.
2. Қуръони Карим. Моида сураси. 54-оят. Азизхўжа Иноятлов, Ғани Зикриллаев Қуръони Карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси-Т: Hilol Nashr.2022.-Б.117.
3. Ahmet Yaşar Ocak, Osmanlı İmparatorluğunda Marjinal Sûfilik: Kalenderîler, Ankara 1992. – 267 b.; Муҳаммад Ризо Шафиъий Кадканий. Қаландария дар тарих.-Техрон. Сахн, 1966. – 606 б.; Зарринкуб Абдулхусайн. Чустичу дар тасаввуфи Эрон – Душанбе: Ирфон, 1992. – 396 б.; Саййид Абу Толиб Мир Обидин.Ойини қаландарий. – Техрон. 1954. – 71 б.; Абул Фадл Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Қунавий.Ас-Суфиятул қаландария. – Мадина, 2002. – 319 б.
- 4.Муҳаммад бин Муҳаммад ал-Ҳофиз ал-Бухорий. –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42.-Б.3.

